

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA A2 DARAJADAGI O'QUVCHILARNING GRAMMATIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

M.B. Norqulova

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7735310>

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida A2 darajadagi o'quvchilarning grammatik kompetentsiyasini shakllantirish muammosi, A2 darajaga qo'yilgan talablar, yurtimizdagi olimlarning grammatika haqidagi fikrlari, o'quv darsliklari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili grammatikasi, A2 daraja, umumiy o'rta ta'lim, maktab darsliklari, grammatik qonun-qoidalar, tildan amaliy foydalanish

Zamon talablariga mos, yuqori malakali, yangi ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatga moslasha oladigan, ilg'or axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlay oladigan, har tomonlama mukammal kadrlarni yaratish har bir davlatning oldiga qo'ygan vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun yoshlarimiz bir necha xalqaro tillarni o'z ona tilidek yaxshi bilishlari lozim. O'z navbatida yurtimizda zamon talablariga xos bo'lgan ta'lim sharoitini yaratish uchun tinimsiz mehnat qilinmoqda. Ayniqsa, ingliz tilini samarali o'rgatishning yangicha usul va vositalari ishlab chiqishga doir harakatlar davom etmoqda. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarga ingliz tilining bazaviy bilimlari o'rgatiladi ya'ni asosiy grammatik qonuniyatlar va yetarli darajadagi so'z boyligi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan, 9-modda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim" [1] to'g'risidagi qonunga ko'ra, Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Bizning tadqiqot ishimiz bevosita A2 bosqich ya'ni 7-9 sinflarni o'z ichiga olgadi, bu esa maktabning tayanch o'rta ta'lim bosqichiga to'g'ri keladi.

-Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

-Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.¹

¹ (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Davlat ta'lim standartida maktablarda ingliz tilini o'qitish xalqaro CEFR talablariga binoan yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra A1, A2, B1 bosqichlarda o'quvchilar qanday til qobiliyatlari va me'yorlariga ega bo'lishlari alohida ko'rsatib o'tilgan. A2 darajadagi o'quvchilar aktiv 650 ta va passiv 800 ta so'z bilishlari lozim, grammatikadan asosiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lishlari, kichik tekstlarni o'qib tushuna olishlari, ma'lum mavzular yuzasidan erkin muloqot qila olishlari, tinglab tushuna olishlari va yozishda erkin fikrlarini bayon eta olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Ingliz tili grammatikasini o'rgatish jahon hamjamiyatida XVI asrdan Uilyam Bullokarining "Ingliz tili grammatikasi"² risolasidan [2] boshlanadi. Ilk asarlarda ingliz tili grammatikasing tuzilishi va qonunlari lotin tiliga asoslangan edi. Shundan buyon ingliz tili grammatikasi yuzasidan turli fikrlar, bahs- munozaralar ilgari surildi, hamda ko'plab kitoblar, risola va har xil asarlar yaratildi. Yurtimizda Irisqulov, Jamol Jalolov, M.G'apporov, I.O'tayeva, A.Isoqov, H.Mustafayeva, M.Choriyev kabi ko'plab olimlar o'z tadqiqot ishlarida ingliz tili grammatikasi va uni rivojlantirish borasida ilmiy ishlar olib borishdi.

J.Jalolovning [3] fikrlariga ko'ra "Nutqning grammatik mexanizmida grammatik harakatlar yetakchi o'rin egallaydi. Nutqning grammatik jihatdan avtomatlashgan ko'nikmalarini hosil qilish grammatik harakatni egallash deyiladi. Grammatik tayyor materialni o'rganish deganda, grammatik shakllarni eslab qolish tushuniladi. Ta'rif, qoida, tushunchani eslab qolish va qo'llash umumlashmasi o'zlashtirish demakdir".³ T.K.Sattorov⁴ [4] "grammatik hodisaning yasalishi, ma'nosi va qo'llanishi, alohida-alohida grammatik birlik hisoblanadi" deb yozgan.

Tilni amaliy egallashda grammatikani bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Til grammatikasi- Grammatik vositalar yig'indisidan iborat bo'lib, bu vositalar yordamida ushbu tilda so'zlar, so'z birikmalari va gaplar hosil qilinadi [5].⁵ M.G'apporov [6] "Ingliz tili grammatikasi"⁶ nomli kitobida grammatika haqida umumiy ma'lumotlar, qonun- qoidalari va undan amaliy foydalanish uchun misollar bilan o'zbek tilidagi tarjimai bilan ko'rsatilgan. Undagi ma'lumotlar aniqlik va tushunarli tilda yozilgani bilan farqlanadi, ushbu kitob B1 darajalilar uchun moslashtirib yozilgan.

Mustaqillikdan keyin Yurtimizda o'rta ta'lim maktabida 7-9 sinflarda o'tilgan ingliz tili fani o'quv darsliklari Fly High, English Matters, Teens' English nomlari ostida chop etilgan edi. Hozirgi kunga kelib maktablarda 2022-yil sentabr oyidan boshlab, Prepare⁷ [7] nomli darslikdan o'quvchilarga ta'lim berilyabdi. Bu kitob O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligining O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi hamkorligi natijasida yaratilgan.

Darslikni ko'zdan kechirish davomida shunga ayon bo'ldikki, ingliz tili grammatikasini shakllantirish uchun alohida betlar ajratilgan, Grammatik qonun qoidalar haqida ma'lumotlar

² Brown, H. D. (2000) *Principles of Language Learning and Teaching*. New York: Longman.

³ J.Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 2012, 170-bet

⁴ T.K.Sattorov Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе Автореф.канд.наукю дисс.-М.,1982.-7-bet

⁵ M.Choriyev "English grammar" T 2004, 3-bet

⁶ M.G'apporov "Ingliz tili grammatikasi" T 2008.

⁷ Joanna Kosta, Melanie Williams "Prepare" 8-sinf darsligi, 2021 Cambridge University Press

berilgan va misollar yordamida ko'rsatilgan. Xalqaro mavzular haqida tekstlar berilgan bo'lib, milliy tekstlar ham bo'lganida maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'smir yoshdagilar uchun mo'ljallanganligi sababli ularni qiziqtiradigan mavzular haqida fikr yuritilgan. Grammatik mavzular A2 bosqich uchun mos va soddalashtirilgan tarzda berilgan. Tasvirlar rang-barang bo'lganligi sababli o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Darslik Teachers' book, Student's book, Workbook va DVD audio yozuvlardan tashkil topgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tili grammatikasini o'rgatish bir necha asrlardan beri davom etib kelmoqda, mamlakatimizdagi ilm ziyolilari ham bunga o'z hissalarini qo'shishmoqda. Grammatik kompetensiyani shakllantirish borasida turli fikrlar va qarashlar mavjud bo'lib, yildan -yilga samarali usullar taklif qilinmoqda.

References:

1. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)
2. Brown, H. D. (2000) Principles of Language Learning and Teaching. New York: Longman.
3. J.Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 2012, 170-bet
4. T.K.Sattorov Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе Автореф.канд.наукю дисс.- М.,1982.-7-bet
5. M.Choriyev "English grammar" T 2004, 3-bet
6. M.G'apporov "Ingliz tili grammatikasi" T 2008.
7. Joanna Kosta, Melanie Williams "Prepare" 8-sinf darsligi, 2021 Cambridge University Press